

XORIJIY RAYHON NAVLARINI MAHALLIY NAVLAR BILAN QIYOSIY O'RGANISH

Qodirov Ulug'bek To'lanovich

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti magistranti

Annotatsiya. Ushbu makolamizda Fargona vodiysi sharoitida xorijiy rayxon navlarini maxaliy navlar bilan qiyosiy solishtirish bilan birga urug'chilik tizimini ishlab chikish bo'yicha qimmatli ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Rayhon, g'uncha, gul, shona, nav, urug', variant, qaytariq.

Аннотация. В данной статье приведены ценные сведения о развитии семеноводства в Ферганской долине, а также проведено сравнение зарубежных сортов базилика с местными сортами.

Ключевые слова: базилик, бутон, цветок, гребень, сорт, семя, вариант, возврат.

Abstract. This article provides valuable information about the development of seed production in the Ferghana Valley, as well as a comparison of foreign varieties of basil with local varieties.

Key words: basil, bud, flower, comb, variety, seed, variant, return.

Rayhon - *Ocimum gattisimum* L., labgullilar - Labiate oilasiga kiradi. Rayhonni boyi 50-70, bazan 100 sm ga yetadigan sershox yarim buta. Poyasi kam tukli, to'rt qirrali, asos qismidan boshlab ko'p shoxlangan. Bargi oddiy, choziq tuxumsimon, tishsimon qirrali bolib, poyada bandi bilan qarama-qarshi joylashgan. Gullari qizil, pushti, sargish, labgullilar oilasiga xos tuzilgan. Avgust oyida gullaydi. Geografik tarqarilishi. Rayhonining vatani Janubiy Afrika, Madagaskar va unga yaqin orollar. O'zbekiston shariotida bir yillik osimlik sifatida ostiriladi. Rayhonining boshqa rayhonlar bilan chatishtirib yaratilgan «Yubiley» navi Qrim, Krasnodar o'lkasida hamda Gruziya, Armaniston, Moldaviya, Qirgiziston respublikalarida o'stiriladi. Issiqsevar, namsevar, yorug'sevar, qurg'oqchilikka chidamsiz o'simlik. Bargi yirik, tuxumsimon, gullari oq yoki pushti, poya va

novdalari ichida boshhoqsimon to'pgulga yig'ilgan. Yashil massasi tarkibida 0,3% efir moyi bor (efir moyining 70% ni atirupa, oziq-ovqat sanoati va tibbiyotida ishlatiladigan yevgenol modddasi tashkil etadi). Urug'i erta bahorda issiqxona va parniklarga sepiladi, dalaga ko'chat qilib ekiladi. Hosildorligi 40-80 s/ga ko'k massa. Janubiy Osiyodan kelib chiqqan *O.basilicum* (oddiy rayhon) turi O'zbekistonda manzarali, och ko'k va ziravor ekin sifatida o'stiriladi. Bo'yi 25-40 sm, gultojisi 2 labli, avgust-sentyabr oylarida gullab urug'laydi, ko'chat qilib ekiladi. Bargining rangi va o'simlik shakliga qarab oq rayhon, osh rayhon, sada rayhon, qora rayhon, hoji rayhon kabi xillarga bo'linadi. Ularning 300 dan ortiq navi bor.

Rayhon o'simligini o'stirish texnologiyasi. Rayhon O'zbekistonning barcha viloyatlarida ekib ostiriladi. Undan yuqori xom-ashyo yetishtirish uchun barcha agrotexnik chora-tadbirlari orasida yerni sifatli qilib ishlash asosiy ahamiyatga ega. Chunki yer tog'ri ishlanganda, rayhon ekiladigan tuproqlarning fizik, kimyoviy va biologik xossalari yaxshilanadi. Uning ildiz tizimini rivojlanishiga qulay sharoit yaratiladi. Rayhon ekiladigan yerlar unumdor fizik xossalari motadil, shorlanmagan va nami etarli bolishi kerak. Rayhon ekiladigan yerlar asosan begona o'tlardan toza bo'lishi shart. Yerni kuzda haydashdan oldin gektar hisobiga 15-20 tonna chirigan mahalliy og'it va fosfor o'gitining yillik normasini 70% ni, ya'ni 40-50 kg dan kirgizib, 25-27sm chuqurlikda haydab qo'yiladi. Rayhon urugini parniklarda sepib, 40-45 kundan keyin erta bahorda haydalgan yerlar tekislanib, borona va mola bostirib tuproq harorati (10-12 sm qatlamda) 15-17°C bolganda uning kochatari 70x70 sm qilib mexanizmlar yordamida yoki qolda ekiladi va har bir uyaga 2 tadan osimlik qoldiriladi va tez-tez sugorilib turiladi. Rayhon osimligini begona o'tlar qoplab ketmasligi uchun uni tozalab turish maqsadga muvofiq boladi. Vegetatsiya davomida 12-13 marta sugoriladi va 4-5 marta kultivatsiya qilinadi. Kultivatorlar yordamida yumshatiladi. Rayhon mineral

va organik o'gitalarga juda talabchan ekin hisoblanadi. Uning yaxshi osishi, rivojlanishi va koproq ko'k massa yetishtirishda o'gitalash tizimini to'gri belgilash lozim boladi. Rayhonni shonalash va gullash fazalarida azotli, fosforli va kaliyli o'gitalar bilan oziqlantiriladi va gektar hisobiga 90 kg azot, 80 kg fosfor va 50 kg kaliy o'giti beriladi. Har bir oziqlantirish sugorishdan oldin amalga oshiriladi. Agrotexnik tadbirlarni yuqori saviyada o'tkazilsa, bizning tuproq - iqlim sharoitimizda gektaridan o'rtacha 4-5 tonna ko'k xomashyo va 800-1000 kg urug yigib olish mumkin.

Biz tajribamizni Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy tadqiqot instituti sharoitida **Maxxaliy**, **Chet-el**, navlarida olib bordik. Rayhonni 60x20x1, 60x30x1 sxemada ekdik. Tajribani o'tkazishdan maqsad dala sharoitida ekilgan horijiy va mahalliy rayhon navlarini rivojlanish fazalarini davomiyligini xamda ekish sxemalari hosildorlikka ta'siri o'rganishdan iboratdir.

1-jadval

Tajriba tizimi

VARIANTLAR	KO'RSATKICHLAR
I nazorat	Maxxaliy navi
II	Chet-el navi (Gruzinski)
III	Chet-el navi (Germanski)

2-jadval

Tajribani dalaga joylanish sxemasi

1	2	3	1	2	3	1	2	3	1	2	3
---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---

Maxxaliy navi	Chet el navi (Gruzinski)	Chet el navi (Germanski)	Maxxaliy navi	Chet el navi (Gruzinski)	Chet-el navi (Germanski)	Maxxaliy navi	Chet-el navi (Gruzinski)	Chet-el navi (Germanski)	Maxxaliy navi	Chet-el navi (Gruzinski)	Chet-el navi (Germanski)
I-Qaytariq			II-Qaytariq			I-Qaytariq			II-Qaytariq		
60x20x1						60x30x1					

Tajriba 2 qaytariq 3 variantdan iborat bo‘lib, 1 yarusda joylashtirildi. Rayhondi **Mahalliy**, **Chet-el** navlari 2021 yil 20 aprelda 60x20x1, 60x30x1 sxemada ko‘chat holida ekildi.

Tajriba delyankalarini uzunligi 5 m bo‘lib eni 30 m.ni tashkil etdi. Delyankalarni umumiy maydoni 150 m² ni tashkil etdi.

Barcha fenologik kuzatuvlar O‘zNIIZR metodikasi bo‘yicha olib borildi.

Har bir variantdan xisoblash uchun 10 tadan rayhon o‘simligi tanlab olinib ularning o‘sh nuqtasiga etiketkalar ilinib qo‘yildi, shuningdek kasallanishni xam shu o‘simliklardan xisoblar yuritildi.

Bu jarayonda har bir o‘simlikning zararlangan barg bandlari va barglarning osilib qolishi, barglarning ustida qaynoq suvda kuyganga o‘xshash dog‘larning paydo bo‘lib, ular so‘ngra qo‘ng‘ir yoki to‘q-qo‘ng‘ir tus olib, keyinchalik barg to‘qimasi biroz oqarib, yupqa qog‘ozsimon bo‘lib qolganlari tekshirildi. Bunday o‘simlikdan har bir variant takrorida 10 tasi tekshirildi.

1 ta rayhon bargining o‘rtacha vaznini topishda 1 va 2 qaytiqlardan 10 tadan rayhon o‘simligi sanab olinib tortildi va o‘rtachasi aniqlandi.

Urug‘ xosildorligi xam 1 va 2 qaytiqlardan gul to‘plamlari yig‘ishtirib olinib tortilib o‘rtacha xosildorligi topildi.

Kuzatishlar rayhon unib chiqish davridan to urug‘lari pishib yetulgunga qadar davom etdi.

Biz xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, tajribamizdagi rayhon o'simliklar bo'yini aprelni 20-sanasidan boshlab o'lchashga kirishdik, 20.04.2021 xolatiga nazorat variantimizda o'simlik bo'yi 7 sm, 2-variantimizda 5 sm, 3-variantimizda esa 6sm ekanligi aniqlandi.

O'simliklarni bo'yi avgustni 15-sanasigacha xar oyni 1, 15-sanasida aniqlandi, 15-avgust xolatiga 1-nazorat variantimiz 48,8 sm, 2-variantimiz 43,3 sm, 3-variantimiz 42,5 sm ekanligi aniqlanib, nazorat variantdagi mahalliy navimiz horijiy navlarga nisbatan 5-6 sm band bo'yli bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

Gul shoxlarini xisobga olganimizda 1-iyun xolatiga birinchi variantimizda 3,4 dona, ikkinchi variantimizda 3,3 dona va uchinchi variantimizda 2,5 dona ekanligi ma'lum bo'ldi. Bundan ko'rinib turibdiki gul shoxlari soni bo'yicha birinchi variantimiz 3,4 dona bilan qolgan variantlarga nisbatan yuqori xosil shoxga ega ekanligi bilan ajralib turdi, lekin ikkinchi variantimiz xam deyarli katta farq qilmadi 0,1 dona bilan farq qildi, uchinchi variantimiz birinchi variantga nisbatan 0,9 donaga farq qilib eng past ko'rsatkichni namoyon qildi. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha xar 15 kunda nazorat o'tkazib borildi va 15-avgust xolatiga kelib xam variantlarimiz mos ravishda 1-variant 7,2, 2-variant 6,8, 3-variantimizda 5,5 dona bilan dastlabki xolatga nisbatan farq qilmaganligini ko'rishimiz mumkin.

Xar bir variantda belgilangan o'simliklardan gullar soni xisobga olinganda 15-may xolatiga faqatgina birinchi variantimizda 12,2 dona gul xosil qilib qolgan 2 ta variantga nisbatan erta gulga kirganligini namoyon qildi. Ammo kuzatuvlar natijasida shu ma'lum bo'ldiki 15-avgust xolatiga 3-uchinchi variantimizda 12,5 dona, 2-variantimizda 3 dona, 3-variantimizda 7 dona gul qolganligi aniqlandi. ko'rishimiz mumkin.

Tajribamizdagi rayhon o'simliklarini barglar sonini xisobga olganimizda 20-aprel xolatiga 1-variantda bir dona o'simlikda o'rtacha 13,2 dona, 2-variantda 7,5 dona, 3-variantda 6,2 dona ekanligi aniqlandi. Ushbu belgi bo'yicha davomiy

o‘rganilganda 15-avgust xolatiga 1-variantda 48 dona, 2-variantda 37,5 dona, 3-variantda 32,5 dona ekanligi malum bo‘lib birinchi variantda burglar ko‘pligi va uzoq muddat saqlanib turishligi bilan ham ajralib chiqdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Белолипов И.В., Джангуразов Ф.Х. Основы географии и экологии растений. Учебное пособие для студентов сельскохозяйственных вузов Узбекистана. Ташкент 1987 г. 33 с.
2. Райнер Л., Штайнбергер, Дееке У. Озимый ячмень. Москва “Колос”. 1980 г. 82-84 с.
3. Смирнова АА. Семеноводства с основами селекции полевых культур. Москва-Ростов на Дону “Март” 2004. 89 с.
4. Internet, <http://ziyonet.uz/uzc/libraru>
5. Internet, 10 интересных фактов о базилике
6. Internet, все о базилике